

CHAKANA BANK XIZMATLARINI MASOFAVIY PLATFORMALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH AMALIYOTI

Xikmetov Nodirbek Ikromovich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19663854>

Masofaviy bank xizmatlari internet texnologiyalari, mobil ilovalar, elektron identifikatsiya tizimlari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazalariga asoslangan holda tashkil etiladi. Bunday tizimlarda talaba yoki uning ota-onasi bank filialiga tashrif buyurmasdan turib, mobil banking yoki internet banking platformalari orqali ta'lim krediti olish uchun ariza topshirish, zarur hujjatlarni elektron shaklda yuborish va kredit bo'yicha barcha operatsiyalarni masofadan turib boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini ta'minlab, an'anaviy kreditlash jarayoniga nisbatan samaraliroq mexanizmni shakllantiradi.

Ta'lim kreditlarini raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish mexanizmi tijorat banklarining innovatsion rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Mazkur mexanizm bank xizmatlarini masofadan turib ko'rsatish, kredit ajratish jarayonini avtomatlashtirish hamda mijozlar uchun qulay va shaffof moliyaviy xizmatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizm bir nechta o'zaro bog'liq bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich kreditlash jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Shunday qilib, ta'lim kreditlarini raqamli texnologiyalar asosida taqdim etish mexanizmi kreditlash jarayonini avtomatlashtirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish hamda banklar faoliyatining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur mexanizm bank tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish bilan birga, talabalar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (1-rasm).

Kredit ajratish jarayonining tezlashishi	Kredit arizalari onlayn qabul qilinadi
	Hujjatlar elektron shaklda ko'rib chiqiladi
	Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tezkor qaror qabul qilinadi
Byurokratik jarayonlarning qisqarishi	Qog'oz hujjatlar hajmi kamayadi
	Elektron identifikatsiya tizimlari qo'llaniladi
	Ma'lumotlar davlat bazalari orqali tezkor tekshiriladi
Shaffoflik va nazoratning kuchayishi	Barcha operatsiyalar axborot tizimlarida qayd etiladi
	Kreditlash jarayoni monitoring qilinadi
	Subyektiv qarorlar va korrupsiya xavfi kamayadi
Operatsion xarajatlarning kamayishi	Bank filiallariga ehtiyoj kamayadi
	Xizmat ko'rsatish avtomatlashtiriladi
	Bank resurslaridan samarali foydalanish ta'minlanadi

1-rasm. Masofaviy platformalar orqali ta'lim kreditini taqdim etishning afzalliklari

Masofaviy xizmat ko'rsatish platformalari orqali ta'lim kreditlarini ajratish tizimi bir qator iqtisodiy va institutsional afzalliklarga ega bo'lib, ular tavsifini yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Masofaviy kreditlash tizimining yana bir muhim jihati zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Xususan, sun'iy intellekt texnologiyalari kredit arizalarini tahlil qilish, mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash va kredit risklarini prognoz qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilib, kredit berish bo'yicha optimal qaror qabul qilishga yordam beradi. Shuningdek, "big data" texnologiyalaridan foydalanish banklarga mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlari, to'lov intizomi va kredit tarixini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali mijozlar segmentatsiyasini amalga oshirish va individual kredit mahsulotlarini taklif qilish mumkin bo'ladi. Bu esa kredit portfelining sifatini oshirishga va kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Avtomatlashtirilgan skoring tizimlari esa kredit arizalarini baholash jarayonini standartlashtiradi. Skoring tizimi mijozning daromadi, kredit tarixi, to'lov intizomi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida uning kreditga layoqatlilikini baholaydi. Natijada kredit ajratish jarayonida inson omilining ta'siri kamayadi va qaror qabul qilish jarayoni yanada obyektiv bo'ladi.

Shu bilan birga, masofaviy platformalar orqali ta'lim kreditlarini taqdim etish banklar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni ham mustahkamlaydi. Elektron ma'lumotlar almashinuvi tizimlari orqali banklar talabalar haqidagi zarur ma'lumotlarni tezkor ravishda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kredit ajratish jarayonining ishonchliligini oshiradi va tizim samaradorligini ta'minlaydi.

1-jadval

“Biznesni rivojlantirish bank” ATBning muammoli kreditlari hajmida ta'lim kreditlarining ulushi (mlrd. so'm va foizda)¹

Yillar	Muammoli kreditlar hajmi	Muammoli ta'lim kreditlari hajmi	Jamidagi ulushi
2021	749,4	-	0,00
2022	789,8	0,03	0,00
2023	1935,4	0,52	0,03
2024	1915,0	2,23	0,12
2025	1110,0	1,73	0,16

2021-yilda tijorat bankining muammoli kreditlari umumiy hajmi 749,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, ta'lim kreditlari segmentida muammoli qarzdorlik kuzatilmagan. Ushbu holat, bir tomondan, ta'lim kreditlash hajmining nisbatan cheklanganligi bilan, ikkinchi tomondan esa, ushbu kreditlar bo'yicha to'lov intizomining yuqori darajada shakllanganligi bilan izohlanadi. Bu davrda ta'lim kreditlari bank kredit portfelida risk darajasi past segment sifatida namoyon bo'lgan.

¹ “Biznesni rivojlantirish bank” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2022-yilda muammoli kreditlar hajmi 789,8 mlrd so'mga yetgan bo'lsa-da, ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlik 0,03 mlrd so'mni tashkil etib, umumiy portfeldagi ulushi statistik jihatdan ahamiyatsiz darajada (0,00 foiz) bo'lib qolgan. Bu esa ta'lim kreditlari segmentining bank aktivlari sifatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmaganligini hamda ushbu yo'nalishda kredit risklari samarali boshqarilganligini ko'rsatadi.

2023-yilda bankning muammoli kreditlar portfelida sezilarli o'sish kuzatilib, ularning umumiy hajmi 1935,4 mlrd so'mga yetgan. Shu bilan birga, ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlik 0,52 mlrd so'mni tashkil etgan va ularning ulushi 0,03 foizgacha oshgan. Mazkur tendensiya ta'lim kreditlash hajmining kengayishi bilan bir qatorda kredit risklarining ham ortib borayotganligini anglatadi. Bu bosqichda kredit portfelining kengayishi bilan bog'liq ravishda risklarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurati yuzaga kelgan.

2024-yilda umumiy muammoli kreditlar hajmi nisbatan barqarorlashib, 1915,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlik keskin oshib, 2,23 mlrd so'mga yetgan. Natijada, ushbu segmentning umumiy muammoli kreditlar tarkibidagi ulushi 0,12 foizni tashkil etgan. Bu holat ta'lim kreditlari portfelining jadal kengayishi sharoitida risklarning nisbatan yuqori sur'atlarda ortib borayotganligini va ushbu segmentda kredit sifati bilan bog'liq muammolar paydo bo'layotganligini ko'rsatadi.

2025-yilda umumiy muammoli kreditlar hajmi sezilarli darajada kamayib, 1110,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlik ham 1,73 mlrd so'mgacha qisqargan bo'lsa-da, ularning umumiy portfeldagi ulushi 0,16 foizgacha oshgan. Bu esa nisbiy ko'rsatkich sifatida ta'lim kreditlari segmentining muammoli kreditlar tarkibidagi ahamiyati ortib borayotganligini anglatadi. Boshqacha aytganda, umumiy muammoli kreditlar kamayishiga qaramay, ta'lim kreditlarining ulushi tezroq o'sish sur'atini namoyon qilmoqda.

Umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim kreditlari bo'yicha muammoli qarzdorlikning mutlaq hajmi hali ham past darajada saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, ularning nisbiy ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu tendensiya ta'lim kreditlash hajmining kengayishi bilan bir qatorda risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Shu bois, kelgusida tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlari segmentida kredit risklarini baholashning ilg'or usullarini joriy etish, qarzdorlarning to'lovga layoqatligini chuqur tahlil qilish, shuningdek, kredit monitoringi va qaytaruv intizomini kuchaytirish orqali mazkur yo'nalishdagi muammoli kreditlar ulushining oshib borishining oldini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2-jadval

“Biznesni rivojlantirish bank” ATBning ta'lim.brb.uz tizimi orqali ajratilgan kreditlar hajmi (mlrd. so'm va foizda)²

Yillar	Jami ta'lim kreditlari hajmi	Ta'lim.brb.uz tizimi orqali ajratilgan kreditlar hajmi	Ulushi
2024	56,5	30,8	54
2025	78,0	78,0	100

² “Biznesni rivojlantirish bank” ATB ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

“Biznesni rivojlantirish bank” ATB tomonidan ta’lim kreditlarini ajratishda ta’lim.brb.uz tizimining joriy etilishi 2024-yildan boshlab kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish va soddalashtirishda muhim bosqich bo’ldi. 2024-yilda jami ajratilgan ta’lim kreditlari 56,5 mlrd so’mni tashkil etgan bo’lib, shundan 30,8 mlrd so’mi yoki 54 foizi mazkur elektron platforma orqali amalga oshirilgan. Bu esa tizim ilk yilidayoq bank amaliyotiga sezilarli darajada integratsiyalashganini hamda mijozlar tomonidan faol qabul qilinganini ko’rsatadi.

2025-yilga kelib esa mazkur tizim orqali ajratilgan kreditlar hajmi 78,0 mlrd. so’mni tashkil etgan, ya’ni bank tomonidan ajratilgan ta’lim kreditlari to’liq ushbu tizim hissasiga to’g’ri kelgan. Ushbu holat bankning ta’lim kreditlarini ajratish jarayonini to’liq raqamli platformaga o’tkazganini bildiradi. Shu bilan birga, mazkur tizim orqali kredit ajratish jarayonining to’liq raqamlashtirilishi va masofaviy shaklga o’tkazilishi bank xizmatlarining qulayligi va ommabopligini sezilarli darajada oshirdi, ya’ni mijozlarga ortiqcha vaqt va xarajatlarsiz, tezkor hamda shaffof tarzda moliyaviy resurslardan foydalanish imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, ta’lim kreditlarini ajratishda “ta’lim.brb.uz” raqamli platformasining joriy etilishi kredit jarayonlarini to’liq raqamlashtirish yo’lida muhim bosqich bo’lib xizmat qilgan. 2025 yilga kelib kreditlarning 100 foizi ushbu tizim orqali amalga oshirilishi bank xizmatlarining samaradorligi, shaffofligi va tezkorligini sezilarli oshirgan.

Umuman olganda, bank amaliyotida raqamli platformalarning keng joriy etilishi kreditlash jarayonlarini optimallashtirishga, xizmatlar sifatini yaxshilashga hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Tijorat banklari uchun mijozlar bazasini kengaytirish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning ustuvor strategik yo’nalishlaridan biri – aholiga, xususan talabalarga, masofaviy xizmat ko’rsatish platformalari orqali ta’lim kreditlarini taqdim etish hisoblanadi. Bunda to’lov-kontrakt asosida tahsil oluvchilarga bank xizmatlaridan qulay va tezkor foydalanish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nafaqat banklarning chakana kreditlash portfelini diversifikatsiya qiladi, balki moliyaviy xizmatlarga bo’lgan talabni oshirish, mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni shakllantirish va ularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, ta’lim kreditlari orqali yosh avlodni moliyaviy qo’llab-quvvatlash banklarning ijtimoiy mas’uliyatini ta’minlash bilan birga, barqaror daromad manbalarini shakllantirishga ham imkon yaratadi.

Mazkur strategik yondashuvning amaliy ifodasi sifatida 2024-yil sentabr oyidan boshlab “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda Ta’lim.brb.uz platformasining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu platforma orqali talabalarga masofaviy tarzda ta’lim kreditlarini ajratish jarayonlari to’liq raqamlashtirilgan bo’lib, ariza topshirishdan tortib mablag’larni olishgacha bo’lgan barcha bosqichlar avtomatlashtirilgan tizim asosida amalga oshiriladi. Natijada bankning operatsion samaradorligi oshib, mijozlarga xizmat ko’rsatish sifati sezilarli darajada yaxshilanadi hamda ta’lim kreditlari bozorida bankning raqobatbardoshligi mustahkamlanadi. Shu bilan birga, mazkur innovatsion yondashuv moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashni ta’minlab, yoshlar orasida bank xizmatlaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan masofaviy bank xizmatlari ta’lim kreditlarini ajratish jarayonini soddalashtirish, tezlashtirish va shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur tizim banklar uchun mijozlar bazasini kengaytirish imkoniyatini yaratish bilan birga, yoshlarning oliy ta’lim olish imkoniyatlarini ham

kengaytiradi. Natijada inson kapitalining rivojlanishi, iqtisodiy o'sish va moliya tizimining barqarorligi ta'minlanadi.

Kelajakda raqamli bank xizmatlari yanada rivojlanishi bilan ta'lim kreditlarini taqdim etish jarayonida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Sun'iy intellekt (AI) asosida kredit skoring tizimini joriy etish talabning ijtimoiy-iqtisodiy holati, o'qish natijalari va to'lov intizomi kabi ko'rsatkichlar asosida kreditga layoqatlilikni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada kredit ajratish jarayoni tezlashadi va risklar minimallashtiriladi.
2. Ta'lim kreditlarini subsidiya va grant tizimlari bilan integratsiya qilish muhim hisoblanadi. Ya'ni, davlat yoki homiy tashkilotlar tomonidan ajratiladigan subsidiyalarni kredit bilan uyg'unlashtirish orqali talabalar uchun moliyaviy yukni kamaytirish mumkin. Bu esa ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytiradi.
3. "Flexible repayment" (moslashuvchan qaytarish) tizimini joriy etish orqali talabalar o'qishni tugatgandan so'ng daromadiga qarab kreditni bosqichma-bosqich to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yondashuv xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib, yoshlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.
4. Blokcheyn texnologiyasi asosida shaffof monitoring tizimini yaratish orqali kredit mablag'larining maqsadli sarflanishi, kontrakt to'lovlari va qarzdorlik holati real vaqt rejimida nazorat qilinadi.
5. Fintech startaplar bilan hamkorlikni kengaytirish orqali innovatsion xizmatlarni joriy etish tezkor kredit berish, biometrik identifikatsiya, "one-click" ariza topshirish kabi xizmatlar orqali mijozlar uchun yanada qulay ekotizim yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklarida mijozlar bazasini kengaytirish va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish maqsadida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga masofaviy xizmat ko'rsatish platformalari orqali ta'lim kreditlarini taqdim etish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash mumkin. Bu nafaqat banklar faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirib, inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi.